

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXMANOV DMITRIY QALANDAROVICH

PARLAMENT FAOLIYATINI ILMIY-EKSPERT TA'MINLASH

12.00.11 – Parlament huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Rahmanov Dmitriy Qalandarovich

Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert ta'minlash.....3

Рахманов Дмитрий Каландарович

Научно-экспертное обеспечение деятельности парламента.....24

Rakhmanov Dmitry Kalandarovich

Scientific and expert support of the Parliament's activities.....47

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....52

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

RAXMANOV DMITRIY QALANDAROVICH

PARLAMENT FAOLIYATINI ILMIY-EKSPERT TA'MINLASH

12.00.11 – Parlament huquqi

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1262 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” Axborot ta’lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Otaxonov Foziljon Xaydarovich
yuridik fanlar doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yakubov Shuxrat Ummataliyevich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Abbosxonov Toirxon Xasan o‘g‘li
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/2025.27.12.Yu.01.02-raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 22-yanvardagi kuni soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent sh., Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36; faks: +99871 233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1479-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent sh., A.Temur ko‘chasi, 13. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 9-yanvarda tarqatildi.

(2026-yil 9-yanvardagi 1-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.M. Xashimhonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
yuridik fanlar doktori, professor

H.U. Turdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

I.R.Bekov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasiga annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash masalalariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ko'plab mamlakatlarda, xususan, Germaniya, Italiya, Koreya Respublikasi, AQSh, Fransiya, Yaponiya va boshqa davlatlar parlamentlarida ilmiy-ekspert tuzilmalari faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, ba'zi mamlakatlarda parlament qo'mitalari qoshida ilmiy-ekspert muassasalari tashkil etilmoqda.

Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash masalalari bugungi kunda parlamentarizmni xalq vakilligining eng samarali shakli sifatida rivojlantirish nuqtayi nazaridan dolzarb va muhim muammolardan hisoblanadi. Bu holat xorijiy mamlakatlarda nafaqat ekspertlar hamjamiyati, balki siyosiy elita orasida ham tobora keng tarqalayotgan "oqilona (yoki ratsionallashtirilgan) parlamentarizm" g'oyasiga hamohangdir.

Jahonda parlamentning ilmiy-ekspert hamjamiyati bilan o'zaro hamkorligi uning samarali faoliyatining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. XXI asrda har qanday davlat qarorlari olimlar, mutaxassislar va fuqarolik jamiyati vakillari bilan ochiq muloqot asosida qabul qilinishi zarurligiga shubha yo'q. Bu maqsadga parlament faoliyatining tahliliy, axborot, ilmiy va ekspert ta'minotini takomillashtirish hamda parlament ish uslublarini zamonaviy aloqa va boshqaruv darajasiga moslashtirish orqali erishiladi. Mazkur yondashuv parlament tadbirlarini tashkil etish va parlamentning ijobiy qiyofasini shakllantirish masalalariga ham taalluqlidir.

O'zbekiston Respublikasida davlat organlari, jumladan, mamlakat parlamenti – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash masalalariga, ayniqsa, so'nggi yillarda alohida e'tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash nihoyatda dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bir narsani bilishimiz kerak: ilmsiz, innovatsiyasiz oldimizga qo'ygan maqsadlarga hech qachon erisha olmaymiz"¹. Shu bois respublika parlamenti – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati qoshida, shuningdek, palatalarning qo'mitalari huzurida turli tuzilmalar tashkil etilgan. Ular, bir tomondan, axborot-tahliliy ta'minot bilan, boshqa tomondan, parlament faoliyatining ilmiy-ekspert ta'minoti bilan shug'ullanadi.

Ammo O'zbekiston parlamenti huzuridagi ilmiy-maslahat xizmatlari faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, mamlakat parlamenti, deputatlar va senatorlar ushbu institutlarning butun salohiyatidan to'liq foydalanmayapti. Bu bir tomondan, parlament a'zolarining bunday xizmatlarning haqiqiy imkoniyatlari haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi, boshqa tomondan esa, parlament faoliyatini

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2020-yil 3-dekabr kuni fan va innovatsiyalarni rivojlantirish sohasida oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tashkilotlar, tarmoqlar va hududlar oldida turgan ustuvor vazifalarga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi.

ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash salohiyatidan samarali foydalanilmasligi bilan bog'liq. Buning qisman sababi mutaxassislar va ekspertlarning parlament faoliyatiga ilmiy-ekspert ko'magini ko'rsatish bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega emasligida. Shuningdek, ushbu masalalar hozirgacha yuridik fanda kompleks fundamental tadqiqot predmeti bo'lmagan, bu esa dissertatsiya tadqiqoti mavzusining **dolzarbligi va zaruriyatini** belgilaydi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati Reglamenti to'g'risida"gi, "Qonunlar loyihalarini tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi, "Parlament nazorati to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini hamda norma ijodkorligi jarayoni sifatini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlar normalarini ma'lum darajada amalga oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Parlament faoliyatining ilmiy-ekspert ta'minoti bilan bog'liq masalalar quyidagi asosiy yo'nalishlarda o'rganildi.

Birinchi yo'nalishni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning asarlari va nutqlarida yoritilgan parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning konseptual va asosiy jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning ikkinchi yo'nalishi parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning ayrim jihatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lib, ushbu mavzu ilmiy adabiyotlarda yetarlicha chuqur, kompleks va to'liq o'rganilmagani qayd etiladi. Bu holat quyidagi o'zbek olimlari – D.X. Abduqodirov, X.T. Odilqoriyev, T.X. Abbosxonov, A.R. Oqilov, I.R. Bekov, Sh.X. Zulfiqorov, F.X. Otaxonov, P.A. Rustamov, A.X. Saidov, A.Sh. Sodiqov, I.T. Tulteyev, Sh.Z. O'razayev, X.S. Hayitov, R.R. Hakimov, E.X. Xalilov, shuningdek, xorijlik olimlar – A.I. Abramova, V.A. Vitushkin, N.A. Vlasenko, N.S. Volkova, I.V. Vorobyov, E.P. Golenishchev, S.A. Grachev, A.D. Dorjiyev, I.V. Klimenko, D.A. Kozlov, G.B. Kisikova, Y.A. Selivanova, T.Y. Xabriyeva, V. Blishk (Germaniya), S. Kempbell, D. Laport (Fransiya), D. Lis, S. Franshits (AQSh), G. Haynen

(Germaniya), D. Xoll (Shimoliy Irlandiya), E. Xurma (Turkiya) va boshqalarning ilmiy ishlarida qayd etilgan.

Tadqiqotning uchinchi yo'nalishi amaliy xarakterga ega bo'lib, ushbu ishlarning natijalari parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning ayrim jihatlariga oid turli to'plamlar, sharhlar, axborot-tahliliy materiallar, amaliy qo'llanmalarda o'z aksini topgan.

Barcha ilmiy va amaliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ularda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash bilan bog'liq asosiy tushunchalar, bu institutning shakllanish tarixi va bosqichlari, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning shakl va usullari, shuningdek, O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy va tashkiliy asoslari chuqur o'rganilmagan. Bu esa ularni, jumladan dissertatsiya tadqiqoti doirasida ham, har tomonlama ilmiy-nazariy jihatdan ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

“Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert ta'minlash” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston Respublikasi Parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

parlamentlik faoliyatining ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash bilan bog'liq fundamental tushunchalar mazmunini ochib berish;

O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashining tarixi va bosqichlarini tahlil qilish, ushbu institut rivojlanishidagi eng o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash;

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning asosiy shakl va usullarini aniqlash, ularning samaradorligi va isbotlanganligini empirik ma'lumotlarga asoslanib ilmiy jihatdan asoslash;

O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy va tashkiliy asoslarini o'rganish, ularning umumiy, o'ziga xos va farqli xususiyatlarini aniqlash hamda asoslash;

xorijiy parlamentlar faoliyatining ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashni tashkil etish bo'yicha qiyosiy-huquqiy tahlilini o'tkazish;

Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning milliy tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, kelgusida ushbu institutni rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlarini aniqlash.

Tadqiqot obyekti parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash bilan bog'liq hamda parlament faoliyatiga ko'maklashish jarayonida parlament, ilmiy va ekspert muassasalari o'rtasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmetini parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning tashkiliy tuzilmalari, shakllari, usullari va asosiy tamoyillari evolyutsiyasi, ular bilan bog'liq ilmiy nazariyalar, g'oyalar, konsepsiyalar, qarashlar, xalqaro hujjatlar, O'zbekiston Respublikasida mazkur jarayonni yanada rivojlantirish va takomillashtirishning eng ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkonini beruvchi milliy va xorijiy qonunchilik tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Ushbu tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, tarixiy, statistik, sotsiologik, tizimli-tarkibiy va rasmiy-yuridik kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi zamonaviy O'zbekistonda, xorijiy mamlakatlarda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning mazmuni, shakllari va usullarini har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lib, quyidagilar bilan belgilanadi:

parlament faoliyatining ilmiy tarkibiy qismini kuchaytirish maqsadida nafaqat parlamentning o'zi, balki uning yordamchi xizmatlari, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti o'z ishiga vazirliklar, idoralar hamda ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining olimlari, mutaxassislarini jalb etishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti qoshida parlament faoliyatiga ilmiy va ekspert ko'magini ko'rsata oladigan Ilmiy-ekspert kengashini tashkil etish to'g'risidagi taklif asoslantirilgan;

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining asosiy vazifalari qatoriga Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazishni kiritish zarurligi asoslangan;

Parlament tadqiqotlari institutining ilmiy, axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash uchun olimlar va mutaxassislardan iborat ishchi guruhlarni, shu jumladan, shartnoma asosida tuzish huquqiga oid taklif asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to'g'risida”gi Konstitutsiyaviy qonunlarga, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Reglamenti to'g'risida”gi, “Parlament nazorati to'g'risida”gi Qonunlarga hamda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslarini kuchaytirishga qaratilgan boshqa qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan;

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashni yanada takomillashtirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

parlament faoliyatida ilmiy va ekspert muassasalari imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash usullarining afzalliklari ochib berilgan;

parlament faoliyatida ilmiy va ekspert muassasalarining imkoniyatlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan, shuningdek, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash jarayonida ilmiy usullarning afzalliklari ochib berilgan;

olimlar, ekspertlar va mutaxassislarning o'z vazifalarini amalga oshirishda mamlakat parlamenti, uning organlari, deputatlar va senatorlar bilan amaliy hamkorlik qilish istiqbollari asosli ravishda ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyani tayyorlash jarayonida qo'llangan uslublar, rasmiy manbalardan olingan ma'lumotlar, tadqiqot doirasida foydalanilgan ilmiy-nazariy yondashuvlar, xalqaro va milliy qonunchilikni qiyosiy tahlil qilish natijalari, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi, tadqiqot natijalarining nufuzli milliy va xorijiy ilmiy nashrlarda chop etilganligi, shuningdek, ularning maxsus vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mazkur dissertatsiya tadqiqotini tayyorlash jarayonida shakllantirilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflardan parlamentarizmni rivojlantirish, mamlakat parlamentining ilmiy salohiyatini kuchaytirish muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib borishda, parlament huquqi, konstitutsiyaviy huquq fanlarini o'qitishda, shuningdek, yuridik fanlarning ushbu yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-uslubiy tavsiyalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiya tadqiqoti natijalaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, ularning yordamchi xizmatlari faoliyatini takomillashtirishda, shuningdek, mamlakatimiz parlamentining ilmiy va ekspert doiralari bilan o'zaro hamkorligini yanada rivojlantirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashni takomillashtirishga doir olingan ilmiy natijalardan quyidagilarda foydalanilgan:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni bajarish uchun ilmiy, axborot-tahliliy materiallarni, qonunlar loyihalarini tayyorlash, tadbirlar o'tkazish hamda institutning vakolatiga kiruvchi boshqa vazifalarni amalga oshirish uchun olimlar, mutaxassislar orasidan ishchi guruhlar tashkil etish, shu jumladan, shartnoma asosida tashkil etish huquqini berish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023-yil 2-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish to'g'risida"gi 3129-IV-sonli qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti to'g'risidagi nizamning 3-bobi 7-bandini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan. Mazkur qaror bilan institut to'g'risidagi nizamning yangi tahriri tasdiqlandi (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi № 3/dn-32-son dalolatnomasi). Mazkur

taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida institutga vazirlik, idora, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining olim va mutaxassislarini jalb qilish vakolati birlashtirildi;

Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti huzurida Ilmiy-ekspert kengashini maslahat organi sifatida tashkil etish, uning tarkibiga yetuk olimlar, amaliyotchilar, tadbirkorlik subyektlarining, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari kiritish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023-yil 2-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish to'g'risida"gi 3129-IV-sonli qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti to'g'risidagi nizomning 5-bobi 19-bandini ishlab chiqish jarayonida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi № 3/dn-31-son dalolatnomasi). Mazkur qaror bilan institut to'g'risidagi nizomning yangi tahriri tasdiqlandi. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida institutga vazirlik, idora, ilmiy-tadqiqot va ta'lim muassasalarining olim va mutaxassislarini jalb qilish vakolati birlashtirildi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining asosiy vazifalari qatoriga Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalarining ilmiy ekspertizasini o'tkazish kiritilishi lozimligi to'g'risidagi taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023-yil 2-maydagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzurida Parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish to'g'risida"gi 3129-IV-sonli qarorining 4-bandini tayyorlashda, shuningdek, mazkur qaror bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti to'g'risidagi nizomning 2-bobi 5- va 6-bandlarini tayyorlashda inobatga olingan² (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2024-yil 24-dekabrda № 3/08-265-son dalolatnomasi). Ushbu taklifning amalga oshirilishi Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalarining ilmiy asoslantirilganini ta'minlashga, qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish institutini mustahkamlashga xizmat qiladi;

Institutning unga yuklangan vazifalarni bajarish maqsadida Qonunchilik palatasiga kiritilgan qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish va uning natijalari bo'yicha xulosa berish funksiyasini amalga oshirish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023-yil 2-maydagi 3129-IV-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari instituti to'g'risida"gi nizomning 2-bobi 6-bandining "g" kichik bandini ishlab chiqish jarayonida foydalanildi (O'zbekiston

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 2023-yil 2-maydagi 3129-IV-sonli "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, manba: <https://lex.uz/ru/docs/6501774>

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-fevraldagi № 3/dn-29-son dalolatnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga tatbiq etish institut faoliyatida, ayniqsa, qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazishda, ilmiy tarkibiy qismni kuchaytirishga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa ilmiy forumlarda ma'ruza va tezis shaklida taqdim etildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya tadqiqoti mavzusi bo'yicha muallif tomonidan jami 7 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan 4 ta respublika va 3 ta xorijiy nashrda maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Ushbu dissertatsiya kirish qismi, to'qqizta paragrafni o'z ichiga olgan uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYASINING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslanganligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi, tuzilishi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning ilmiy-nazariy masalalari”** deb nomlangan birinchi bobida parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash bilan bog'liq asosiy tushunchalar yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning shakllanish tarixi va bosqichlari bayon etilib, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning shakllari hamda usullari chuqur tahlil qilingan.

Xorijiy va milliy olimlarning ilmiy asarlarini chuqur o'rganish asosida quyidagi tushunchalarga mualliflik ta'riflar ishlab chiqildi:

parlament faoliyatini ilmiy jihatdan ta'minlash parlament, uning organlari (qo'mitalar, komissiyalar), siyosiy partiyalar fraksiyalari yig'ilishlarida, shuningdek, alohida deputatlar va senatorlar tomonidan ko'rib chiqilayotgan masalalar yuzasidan turli xil ekspert xulosalarini taqdim etish bo'yicha ilmiy muassasalar va alohida olimlar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlar majmui bo'lib, ushbu faoliyat parlament, deputat yoki senator so'rovlari asosida yoxud parlament yoki uning organlari tomonidan tuzilgan ishchi guruhlar (ilmiy-ekspert

kengashlari) doirasida olib boriladi hamda ko‘rib chiqilayotgan masalalarning ilmiy asoslanganligi, maqsadga muvofiqligini aniqlash, shuningdek, ularning sifatini zamonaviy fan yutuqlari asosida baholashni o‘z ichiga oladi;

parlament faoliyatini ekspert jihatidan ta‘minlash fan yoki texnika sohasidagi maxsus vakolatga ega mutaxassis tomonidan parlament, uning organi, deputat yoki senator taqdim etgan hujjat loyihasining ilmiy yoki ilmiy-texnik asoslanganini aniqlash maqsadida maxsus tadqiqot – ekspertiza o‘tkazishga qaratilgan faoliyatdir;

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert ta‘minlash – qonun ijodkorligi, parlament nazorati hamda parlament vakolatlariga oid boshqa masalalar yuzasidan ilmiy-amaliy asoslangan taklif va tavsiyalarni tayyorlash jarayonida parlament, uning organlari, shuningdek, alohida deputatlar va senatorlarga ko‘maklashishga qaratilgan ilmiy va ekspert muassasalarining o‘zaro uyg‘un faoliyati simbiozidir.

Shu bilan birga, parlament faoliyatining ilmiy-ekspert va axborot-tahliliy ta‘minoti o‘rtasidagi munosabat tahlil qilingan.

Dissertantning fikricha, parlament faoliyatining axborot-tahliliy va ilmiy-ekspert ta‘minoti ularning maqsadi, subyektlari va parlament faoliyatiga ko‘maklashishning ushbu turlarini amalga oshirish tartibi bilan farqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi yillarida parlament faoliyatining ilmiy-ekspert ta‘minoti tahlili muallifga turli mezonlar asosida mazkur institut shakllanishi va rivojlanishining beshta bosqichini ajratib ko‘rsatish imkonini berdi.

Birinchi bosqich (1990–1992-yillar) hozirgi O‘zbekiston parlamenti – Oliy Majlisning o‘tmishdoshi bo‘lgan O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash institutining vujudga kelishi (shakllanishi) mezoniga asoslangan holda belgilangan. Ushbu bosqichda mustaqil O‘zbekiston huquqiy tizimining kelajakdagi asosiy, konseptual negizlari hamda mamlakatning hozirgi parlamenti – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining faoliyati uchun huquqiy asos yaratildi.

Ikkinchi bosqich (1993–1997-yillar) O‘zbekiston parlamenti – bir palatali O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonun ijodkorligi faoliyatining ajralmas qismi sifatida parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash institutining qaror topishi mezoni asosida belgilangan.

Uchinchi bosqich (1998–2004-yillar) mamlakat parlamenti tomonidan olimlar va ekspertlarni, ayniqsa, qonunlarni ko‘rib chiqish va qabul qilish jarayoniga faol jalb etish, shuningdek, deputatning o‘z faoliyati bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha mutaxassislarning maslahatlaridan foydalanish huquqini mustahkamlash mezoni asosida belgilandi.

To‘rtinchi bosqich (2005–2017-yillar) O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi va Senati – ikki palatali professional parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash mezoni asosida belgilangan. Bu bosqich parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatidan ta‘minlash tizimini tubdan modernizatsiya qilish va uni mustahkam qonunchilik poydevoriga o‘tkazish uchun zamin yaratdi.

Beshinchi bosqich (2018-yildan hozirgi kungacha) O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev tashabbuslari asosida parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning professional tizimini shakllantirishni boshlash

mezoni asosida belgilandi. Xususan, Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari institutini tashkil etish, shuningdek, O‘zbekiston parlamenti qo‘mitalari va boshqa tuzilmalari huzurida ekspertlar kengashlarini tuzish ana shunday tashabbuslar sirasiga kiradi.

Dissertantning fikricha, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning shakl va usullari parlament faoliyatiga ilmiy-texnik ko‘maklashishning zamonaviy tizimi metodologiyasidan iborat.

Shu munosabat bilan quyidagi tushunchalarga muallif talqini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan qiziqish uyg‘otadi.

Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash shakllari – turli soha olimlari va mutaxassislari tomonidan parlament faoliyatiga ko‘rsatiladigan, mazmuni va mohiyati jihatidan xilma-xil bo‘lgan ko‘maklashish turlari. Shu bilan birga, dissertant parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning quyidagi shakllarini alohida ta‘kidlaydi: 1) olim yoki mutaxassisning parlament ishchi guruhi faoliyatida ishtirok etishi; 2) olim yoki mutaxassisning parlament organiga yoxud alohida deputat yoki senatorga og‘zaki maslahat berishi; 3) parlament, deputat yoki senator so‘roviga ko‘ra yozma ma‘lumot tayyorlash va yuborish; 4) ilmiy ekspertiza o‘tkazish (masalan, qonun loyihasini) va xulosa taqdim etish.

Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash usullari – olimlar va mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan parlament, uning organlari, shuningdek, alohida deputatlar va senatorlarga ko‘rib chiqilayotgan yoki tashabbus qilingan masalalar hamda hujjatlar, qonun loyihalarining ilmiy yoki ilmiy-texnik asoslanganini aniqlashda yordam ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadigan tadqiqot usullari va yo‘llaridir. Shu bilan birga, muallif parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashda tahliliy, dialektik, umumlashtirish, qiyoslash va eksperiment usullarini alohida ta‘kidlab ko‘rsatadi va shaxsiy talqinini beradi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy masalalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning konstitutsiyaviy-huquqiy, institutsional va tashkiliy asoslari tahlil qilingan hamda xorijiy mamlakatlar parlamentlari faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash tajribasi keltirilgan.

Dissertantning fikricha, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashning konstitutsiyaviy asosini yangi tahrirdagi O‘zbekiston Konstitutsiyasidan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlarining qoidalari tashkil etadi. Bunda Konstitutsiyaning ko‘plab qoidalari u yoki bu darajada, bevosita yoki bilvosita o‘rganilayotgan masala bilan bog‘liqdir.

O‘zbekistonda parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatidan ta‘minlashning huquqiy asoslari ancha keng ko‘lamda ifodalangan. Bular qatoriga O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Reglamenti to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining

Reglamenti to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qarorlari bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining reglamentlari, shuningdek, "Parlament nazorati to'g'risida"gi, "Qonun loyihalarini tayyorlash va ularni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi, "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Ekologik nazorat to'g'risida"gi va boshqa ko'plab qonunlarni kiritish mumkin.

Dissertantning fikricha, parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatidan ta'minlashning institutsional va tashkiliy asoslari alohida ahamiyatga ega. Chunki olimlar, mutaxassislar, ilmiy va ekspertlik muassasalari tomonidan parlamentga, uning organlariga, shuningdek, parlament a'zolariga taqdim etiladigan taklif, tavsiya, xulosa va fikrlarning sifati, ishonchliligi, har tomonlama o'ylanganligi hamda tajribadan olinganligi aynan shu asoslarga bog'liq bo'ladi.

Shu munosabat bilan dissertatsiya muallifi quyidagi tushunchalarga o'zining mualliflik talqinini taqdim etdi:

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning institutsional asoslari – parlament, uning organlari yoki alohida a'zolari so'roviga binoan, doimiy ravishda yoki davriy tarzda, to'lovli yoki bepul asosda qonun loyihalari, boshqa hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganini va maqsadga muvofiqligini baholash, turli parlament tadbirlarini o'tkazish zaruriyati hamda parlament vakolatiga kiradigan boshqa masalalar bo'yicha ilmiy va ekspert xizmatlarini ko'rsatuvchi ixtisoslashgan ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ekspert-tahliliy institutlar (organlar, xizmatlar), oliy ta'lim tashkilotlari, alohida olimlar, mutaxassislar va ekspertlardir; Parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning tashkiliy asoslari ixtisoslashgan ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ekspert-tahliliy xizmatlar (institutlar, muassasalar), oliy ta'lim muassasalari, alohida olimlar, mutaxassislar va ekspertlar tomonidan parlament oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ko'rsatiladigan hamkorlik shakllaridir;

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning tashkiliy asoslari – parlament oldiga qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishda ixtisoslashtirilgan ilmiy, ilmiy-tadqiqot va ekspert-tahlil xizmatlari (institutlar, muassasalar), oliy ta'lim tashkilotlari, alohida olimlar, mutaxassislar va ekspertlar tomonidan amalga oshiriladigan parlamentga ko'maklashish shakllari;

parlament huzuridagi ilmiy-ekspert kengashi parlament, uning tarkibiy bo'linmasi yoki mansabdor shaxsi huzuridagi fan va amaliyot vakillaridan iborat maslahat, ilmiy-maslahat va ekspert jamoatchilik tuzilmasi bo'lib, uning asosiy vazifasi parlament faoliyatini, shu jumladan, parlament va yetakchi ilmiy, maslahat va ekspert muassasalari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni ilmiy-ekspert jihatidan ta'minlashdan iborat;

parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlash madaniyati parlament faoliyatini ilmiy-ekspert asosda ta'minlash jarayonida olimlar, mutaxassislar, ekspertlar hamda ilmiy va ekspert muassasalarida shakllanadigan kasbiy bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlar majmui bo'lib, u ilmiy-ekspert faoliyatining shakl va uslublari, shuningdek, parlament va ilmiy-ekspert hamjamiyati o'rtasidagi

mazmunli, ochiq va ishonchga asoslangan hamkorlikning muhim jihatlarini ham o'z ichiga oladi³.

Shu bilan birga, dissertant parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning quyidagi institutsional asoslarini ajratib ko'rsatadi:

1) parlamentda, uning organlarida, shuningdek, bevosita parlament a'zolari tomonidan tuziladigan olimlar va ekspertlardan iborat *ishchi guruhlar*;

2) parlament organlari huzurida fan va texnikaning turli sohalarida eng nufuzli mutaxassislar va ko'zga ko'ringan olimlar orasidan tuziladigan, parlament yoki uning qo'mitalari huzurida maslahat funksiyalarini bajaruvchi *ilmiy-ekspert kengashlari*;

3) parlament, uning organlari yoki alohida a'zolarining so'roviga binoan parlament faoliyatini ta'minlash bilan bog'liq tadqiqotlarni olib boruvchi *oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot muassasalari*, shuningdek, *ekspertlar birlashmalari*;

4) huquqiy va sotsiologik tadqiqotlar, shu jumladan, parlamentarizmni rivojlantirish sohasida izlanishlar olib boruvchi *ixtisoslashtirilgan nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari*.

Dissertant parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning tashkiliy asoslariga quyidagilarni kiritadi:

ilmiy, maslahat va ekspert muassasalari tomonidan parlament, uning organlari va a'zolarining so'roviga ko'ra *axborot va xulosalar* taqdim etish;

parlament tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni *ilmiy va ekspert muhokama* qilish;

parlament, uning organlari yoxud ayrim deputatlar, senatorlar tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni *ilmiy ekspertizadan* o'tkazish;

parlament faoliyatiga *xalqaro mutaxassislar va ekspertlarni jalb etish*.

Xorijiy mamlakatlar parlamentlari faoliyatini tahlil qilish parlament faoliyatini ilmiy-ekspert bilan ta'minlashning quyidagi umumiy, maxsus va o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Shunday qilib, ko'plab parlamentlarda ilmiy-ekspert kengashlari faoliyat yuritadi. Biroq boshqa mamlakatlarda bunday kengashlar yo mavjud emas yoki doimiy asosda ishlamaydi, balki parlamentlar va deputatlarning ehtiyojlariga qarab tashkil etiladi. Ba'zi mamlakatlarda maxsus ilmiy-ekspert kengashlari tuzilgan bo'lib, ular faqat parlament tadbirlari yoki hujjatlarini zamonaviy texnologiyalar, ilm-fan, innovatsiyalar va amaldagi amaliyotning so'nggi yutuqlari nuqtayi nazaridan baholash bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga, ilmiy-ekspert organlari ham keng qamrovli masalalarni, ham aniq vazifalarni hal qilish uchun tuziladi va ular parlamentning palatalari yoki qo'mitalari huzurida tashkil etilishi mumkin.

Bir qator mamlakatlar parlamentlarida ilmiy va texnologik yutuqlar hamda innovatsiyalarni tahlil qilish bo'yicha maxsus ilmiy-ekspert kengashlari mavjud bo'lib, ular umumiy yo'nalishdagi ilmiy-ekspert kengashlari bilan birga yoki alohida faoliyat yuritadi. Yevropadagi bunday kengashlar Yevropa parlamentining

³ Ushbu tushunchani izohlashda quyidagi manbalardan foydalanilgan: Kulturologiya. XX asr. Ikki jildli ensiklopediya / Bosh muharrir va tuzuvchi S.Ya. Levit. - Sankt-Peterburg: Universitet kitob nashriyoti, 1998. - 143 c; Redfield, Robert. The Folk Culture of Yucatan: - Chicago: University of Chicago Press, - P. 64.

texnologiyalarni baholash tarmog'i (*European Parliamentary Technology Assessment*, EPTA) doirasida birlashtirilgan.

Ba'zi mamlakatlarda (jumladan, Isroil, Kanada, Litva va Niderlandiyada) tarixan shunday shakllanganki, hukumat tomonidan tashkil etilgan ilmiy-ekspert tuzilmalari ijro hokimiyati organlarini ham, parlamentni ham ekspert ko'magi bilan ta'minlab kelmoqda. Dissertantning fikricha, bu xolislikni ta'minlamaydi va hokimiyatlarning bo'linishi tamoyiliga mos kelmaydi.

Doimiy asosda faoliyat ko'rsatadigan maslahat-ekspert organlariga ega bo'lgan va ega bo'lmagan parlament palatalarining taxminiy miqdoriy nisbati qariyb 3:2 (mos ravishda 58 foiz va 42 foiz)ni tashkil etadi. O'rganilgan palatalar umumiy sonining taxminan 1/5 qismida texnologiyalarni baholash organlari mavjud. Bir qator mamlakatlarda parlament apparatlari o'z faoliyatini ilmiy tashkilotlar tomonidan maxsus ishlab chiqilgan strategiyalar doirasida olib boradi.

“O‘zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlashni yanada takomillashtirish” deb nomlangan uchinchi bob O‘zbekiston parlamenti faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini ilmiy-ekspert jihatdan ta‘minlash istiqbollarini yoritishga hamda O‘zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert ta‘minlashning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirishga bag‘ishlangan. Bu bobda parlamentning ilmiy-ekspert ta‘minotini rivojlantirish yo‘llari va uning qonunchilik faoliyatidagi ahamiyati batafsil ko‘rib chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida Oliy Majlis palatalarining qonunchilik faoliyatiga olimlar va ekspertlarni jalb etish bo‘yicha shakllangan amaliyotni tahlil qilish natijasida qonunchilik faoliyatida ilm-fan va amaliyotning parlament a‘zolari bilan o‘zaro hamkorligini takomillashtirish mumkin bo‘lgan quyidagi ustuvor yo‘nalishlar aniqlandi. Mazkur yo‘nalishlar rivojlangan demokratik mamlakatlarning ilg‘or tajribasini o‘rganish asosida tanlab olingan:

birinchi yo‘nalish qonun loyihalarini bevosita tayyorlashga olimlar va ekspertlarni jalb etish yoki ilmiy va ekspert hamjamiyati vakillari tomonidan muqobil qonun loyihalarini ishlab chiqish zaruratidan iborat;

ikkinchi yo‘nalish olimlar va ekspertlarni qonun loyihalari hamda qonunlarning tartibga solish ta‘sirini baholash jarayoniga jalb etishdir;

uchinchi yo‘nalish qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini, huquqni qo‘llash amaliyotini o‘rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi ustidan monitoring olib borish uchun olimlar va mutaxassislarni (ekspertlarni) jalb etishdan iborat;

to‘rtinchi yo‘nalish ilmiy-ekspert hamjamiyatiga qonun loyihalarini yoki muqobil qonun loyihalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish huquqini berishni o‘z ichiga oladi.

Dissertant parlament nazorati sohasidagi ilmiy-ekspert ta‘minotini rivojlantirish istiqbollarini bir nechta yo‘nalishlarda taqdim etadi.

Birinchi yo‘nalish – qonunlarning ijrosi ustidan bevosita parlament nazoratini amalga oshirishda ilmiy-ekspert ko‘magini ko‘rsatish.

Ikkinchi yo‘nalish – parlament nazoratining quyidagi turlarini o‘tkazishda ilmiy-ekspert ko‘magini ko‘rsatish:

parlament, uning organlari, deputatlar va senatorlarni qiziqtiruvchi muayyan davlat dasturlarining bajarilish holati, davlat mablag'larining sarflanishi yoki boshqa masalalar bo'yicha batafsil ma'lumot taqdim etish talabi bilan hukumatga yoxud ma'lum bir vazirlikka parlament so'rovi loyihasini tayyorlash;

parlament nazorati tadbirida o'rganilishi zarur bo'lgan masalalarning taxminiy ro'yxatini (so'rovnomani) tayyorlash;

parlament nazorati tadbirini o'tkazish jarayonida va uning yakunlari bo'yicha hujjatlar, materiallar hamda statistik ma'lumotlarni to'plash hamda tahlil qilish, so'ngra qisqacha axborot-tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash.

Bundan tashqari, tadqiqotchining fikricha, parlament a'zolari tomonidan bevosita nazorat tadbirlarini o'tkazishda ilmiy-ekspert hamjamiyatining salohiyati keng qo'llanadi. Bu jarayonda olimlar, mutaxassislar va ekspertlar quyidagi vazifalarni bajarishlari mumkin:

parlament nazorati tadbirlarini o'tkazishda qaysi masalalar muhim va ustuvor ahamiyatga ega ekanligi to'g'risida parlament a'zolariga maslahatlar berish;

parlament a'zolarining alohida e'tiborini tortgan masalalar yuzasidan hukumat a'zolari uchun aniq savollar va ma'lumotnomalar tayyorlash;

parlament a'zolari va hukumat a'zolari o'rtasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganda parlament a'zolariga tezkor maslahat berish;

bahsli masalalar bo'yicha ekspert xulosalarini taqdim etish;

parlamentning yordamchi xizmati yoki qo'mita kotibiyati bilan hamkorlikda parlament nazorati (yakuniy yoki oraliq) natijalari bo'yicha tadbirlar (brifinglar deb ataladigan) tayyorlashga ko'maklashish.

Dissertant parlament faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning yana bir istiqbolli yo'nalishi parlament faoliyatini raqamlashtirishdir, deb hisoblaydi. Bu yo'nalishda olimlar va ekspertlarning tavsiyalari hamda maslahatlari "elektron parlament"ni shakllantirish mexanizmini samarali va to'g'ri ishlab chiqishda, ekspertlar masofaviy ishtirokining zamonaviy shakllarini joriy etishda, qonun loyihalarini tayyorlashni tijoratlashtirish va ilmiy-ekspert hamjamiyati vakillari tomonidan qonunlarning muqobil loyihalarini tayyorlashda alohida ahamiyatga ega.

O'zbekiston parlamenti faoliyatini ilmiy-ekspert jihatdan ta'minlashning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish masalasida dissertant O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2022-yil 22-dekabrda Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda olimlar va ekspertlarning roliga alohida e'tibor qaratgan:

vazirning faoliyatini samarali tashkil etishda parlamentning tegishli qo'mitasi, komissiyasi, deputat va senatorlarning jamoaviy mas'uliyatini belgilash;

parlament faoliyati usullarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish maqsadida bir qator qonunchilik chora-tadbirlarini ishlab chiqish;

hududlardagi kambag'allikning haqiqiy holatini baholash, bu borada olib borilayotgan ishlar ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirish;

xususan, jamiyat va davlat boshqaruvida xotin-qizlarning rolini yanada mustahkamlashga qaratilgan yaxlit tizimni yaratish bo'yicha taklif ishlab chiqish; Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish sohasidagi vakolatlarini kengaytirish,

shuningdek, ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish⁴.

Dissertantning fikricha, ushbu barcha institutsional-tashkiliy va huquqiy choralar chuqur ilmiy-ekspert tahlilini, shuningdek, ularni amalga oshirishning eng samarali va ta'sirchan mexanizmlarini tanlashni ilmiy-ekspert asoslanishini talab etadi.

Shu munosabat bilan, dissertant davlat rahbari tomonidan belgilangan vazifalarning mazmunini ochib berish, shuningdek, ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda ularni amalga oshirishda ilmiy-ekspert ko'magining mumkin bo'lgan shakllari va usullarini atroflicha to'xtalib o'tgan.

XULOSA

